

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI HAMDA TABIY FANLAR INTEGRATSIYASI

Kuchkorova Nurjahon

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti Pedagogika fakulteti Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi

nurjahonkuchkorova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10909610>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda integratsion ta'limni yo'lga qo'yishning ayrim talab va shartlariga asoslangan holda 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi va tabiiy fanlar darsligi o'zaro integratsiyalashtirilgan. Shuningdek, bu turdagi dars loyihasiga doir mashg'ulot strukturasi ham tavsiflangan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, ona tili va o'qish savodxonligi, tabiiy fan, fanlararo aloqadorlik.

MOTHER LANGUAGE AND READING LITERACY AND SCIENCE INTEGRATION IN THE PRIMARY GRADES

Abstract. In this article, the 2nd grade mother tongue and reading literacy and science textbooks are mutually integrated, based on some requirements and conditions for establishing integrated education in elementary grades. Also described is the training structure for this type of lesson project.

Key words: Education, mother language and reading literacy, natural science, interdisciplinary communication.

РОДНОЙ ЯЗЫК, ГРАМОТНОСТЬ ЧТЕНИЯ И ИНТЕГРАЦИЯ НАУКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Абстрактный. В данной статье учебнике по родному языку, чтению и естествознанию для 2-го класса взаимно интегрированы, исходя из некоторых требований и условий построенного образования в начальных классах. Также описана структура обучения для этого типа урока.

Ключевые слова: образование, язык и читательская грамотность, естествознание

KIRISH. Maktab- ta'lim va tarbiyaning asosiy poydevoridir. Yurtboshimiz SH.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi". Bugungi kunda ta'lim sohasiga qaratilayotgan e'tibor o'zining ijobiy samarasini bermoqda. Bunga yaqqol misol 2019-yil 26-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zamonaviy maktab" larni tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida" gi qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq 2030-yilgacha maktablarning 50% ini zamonaviy maktablarga aylantirish ustuvor vazifalardan biri etib belgilandi.

Davlatimiz rahbari yurtimiz uchun yetuk kadrlarni tayyorlashning asosiy bo'g'ini bo'lgan boshlang'ich ta'limni tubdan isloh qilish va e'tibor qaratilishi lozimligini aytib o'tdilar. Bundan ko'zlangan maqsad O'zbekiston ta'lim tizimini xalqaro standartlarga javob beradigan va rivojlangan mamlaktlar ta'lim tizimi bilan raqobatlasha oladigan darajaga yetqazishdir. Bugungi davr jadal suratlarda o'sibib, har bir soha izchillik bilan rivojlanib bermoqda. Ma'lumki, fan va ta'lim doimo birgalikda rivojlanadi. Bugungi kunda boshlang'ich maktab ta'limini integratsiya qilish haqida juda ko'p yangiliklar yaratilmoqda. Bundan maqsad o'quvchilarga tabiat va kundalik

hayotdagi barcha narsalarning o'zaro bog'liqligini ko'rsatib berishdir. Shunday ekan, ta'lim integratsiyasi hozirgi zamon talabiga javob bera oladimi, uni qay tartibda tashkil etish kerak kabi savollar dolzarbligicha qolmoqda. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasini 2017-1021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos, yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha ta'lim sohasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Ana shu islohotlarning muvaffaqiyati mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatorida munosib o'rin egallashi ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasining rivoji, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatdosh bo'la olishimiz bilan uzviy bog'liq, desak hech hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METODOLOGIY /LITERATURE REVIEW)

Integratsiya-bu fanlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog'liqligidir. Ushbu jarayon fanlar orasidagi aloqani yangi va yuqori sifatda bir-biriga bog'lashga xizmat qiladi. Olimlarning fikricha, integratsiya didktik prinsplar qatoriga kiradi va ular orasida yetakchi o'rinni egallaydi. Ta'lim sistemasiga integratsiyani kiritish maktab va jamoatchilik o'rtasida turgan ta'lim va tarbiyaga oid vazifalarni hal etishda asosiy vosita hisoblanadi. Integratsiyalshtirilgan darslar bolalar dunyoqarashida bir butunlikni, voqealar uzviyligini soddaroq anglashga o'rgatadi. Integratsiya jarayoni asoslari uzoq o'tmishdagi xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikaga asoslangan. Didaktik olim Yan Amon Komenskiy fikricha: "Bir-biri bilan bog'liq bo'lgan hamma narsa, huddi shundek o'rganilishi kerak". Fanlararo bog'liqlikni keyinchalik juda ko'p olimlar turli yo'sinda talqin etishdi. D. Lookning takidlashicha: "Ta'lim mazmunining aniqlanishida bir fan boshqa fanlar elementlari va faktlari bilan to'ldirilishi kerak". Pestalossi esa bu haqida bir fanning boshqa fandan uzoqlashuvi xavfli ekanligini ta'kidlaydi. Bolgariyalik olimlar tabiiy-ilmiy bilimlarni o'z ichiga olgan geografiya, geologiya, fizika, kimyo, kristallografiya, tuproqshunoslik, poletalogiya va shunga o'xshash fanlarni o'z ichiga oluvchi "Yerni o'rganish" fanini kiritgan. Chehoslavakiya ham bu borda ortda qolmadi, ular ham shunday umumlashtiruvchi "Fuqarolar tarbiyasi" deb nomlanuvchi fan katta sinflar uchun dars sifatida kiritilgan.

Mamlakat kelajagi, barcha sohalar va loyihalar muvaffaqiyati bilimli insonlarga bog'liq. Shu bois oxirgi to'rt yilda ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilar mavqeini yuksaltirish bo'yicha ko'p ishlar qilindi. O'zbekistonning 2022-2026-yill

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

Boshlang'ich ta'limda integratsiyani amalga oshiruvchi asosiy vazifani o'qituvchi amalga oshiradi. U o'quvchilarga hisob-kitobni, yozishni, nutqiy ko'nikmalarni va tabiat haqidagi boshlang'ich tushunchalarni o'rgatadi. Boshlang'ich ta'limda integratsiyani bir-biriga yaqin fanlar bilan amalga oshirish ijobiy natija beradi. Masalan, 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligidagi "So'z va gap" va tabiiy fanlar darsligidagi "Jonli va jonsiz organizmlar" mavzuni o'zaro integratsiya qilishimiz mumkin. Dars boshlang'ich o'qituvchi o'quvchilarga "So'z va gap" mavzusi haqida ma'lumot bergach, darsni tabiiy fanlar bilan integratsiyalash jarayoniga o'tadi. Tabiiy fanlar darsligidan jonli va jonsiz organizmlarga mos bo'lgan rasmiy kartochkalar o'quvchilarga ko'rsatiladi va o'quvchilar ikkita guruhga bo'linadi. O'qituvchi esa ularga tezkorlik

bilan rasmga tegishli bo'lgan bir-birini takrorlamaydigan gap tuzishni topshiriq qilib beradi. Bu ikkala fanning integratsiyalashuvi o'quvchilarda nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirib, fikrlash doirasining oshishiga, o'z bilimi va kuchiga bo'lgan ishonch hissini ortishiga yordam beradi. Dars ijodiy, erkin bo'lishi bilan o'quvchilarda yana darsga qiziqish uyg'otadi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarning 70%i ta'lim tizimida integrativ darslik hamda o'quv dasturlaridan foydalanmoqda. Masalan, Buyuk Briyaniya ta'lim tizimida asosan integrativ fanlar joriy qilingan. Korea va Shvetsariya esa integratsiyalshgan fanlar yoki o'quv predmetlari, Avstraliyada integratsiyalshirilgan fanlar, Yaponiya, Shimoliy Irlandiya va Germaniyada ham integrativ fanlar mujassamlashtirilgan holda o'qitiladi. O'zbekistonda bu sohada ham juda ko'p yangiliklar kiritilmoqda.

MUHOKAMA VA XULOSA (DISCUSSIN AND REFERENCE)

Ona tili va tabiiy fanlar inegratsiyalashuvi o'quvchilarda dunyoning zamonaviy tabiiy-ilmiiy ko'rishiga, mantiqiy fikrlashiga yordam beradi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarish jarayonida ularning aqliy faoliyati jalb etiladi, o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonch hissi ortadi. Shu kabi tashkil etilgan darslarda vaqtdan unumli foydalaniladi. Natijada esa, ta'lim samaradorligi ortadi. Ta'limning zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanib o'tilgan darslarda o'quvchilarning bilish faoliyati individual tarzda tashkil etiladi.

Darslarni inegratsion shaklda tashkil etish nafaqat darsning maroqli va mazmunli o'tishini, o'quvchilar dunyoqarashining har tomomnlama rivojlanishini kafolatlaydi. Pedagogning kreativligi va ijodkorligi o'z-o'zidan rivojlanib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash, kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish, yangi-yangi g'oyalarni yaratishga faollik ko'rsatish, ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar hususida fikr almashish orqali shakllantiriladi. Qolaversa, kreativ faoliyat salohiyat negizida har bir mutaxassisning Shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi.

REFERENCES

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi" 2017.02.07.
2. 2020 "Yangi O'zbekiston" va "Pravda stovka" gazetlari tahririyati DUK.
3. <https://lex.uz/acts/-3107036>
4. K.Qosimova va b. "Ona tili o'qitish metodikasi", Toshkent, "Nosir" nashriyoti. 2009. B. 205-209.
5. Suyarov K va boshqalar. Tabiiy fanlar: 2-sinf uchun darslik. Toshken: Respublika ta'lim markazi, 2021-y.
6. Ona tili va o'qish savodxonligi 2-sinf. Toshkent-2022-y.